

## Muzey va oliy ta'lim muassasalari hamkorligi

O`zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi «Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PQ-4680-sonli qarorining “2020 - 2023 yillarda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetini kompleks rivojlantirish” dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta`minlash maqsadida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetininining “Xorijiy mamlakatlar tarixi”, “Sharq filologiyasi va tarjimonshunoslik”, “Sharq sivilizatsiyasi va tarix” va “Yaponshunoslik” fakultetlari 2-3 kurs talabalarining amaliyoti boshlandi.



Shu munosabat bilan Muzeyda talabalar bilan tanishuv yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda talabalarga Muzeyning qurilish tarixi, faoliyatining asosiy mohiyati, “Fond va arxiv”, “Ma'naviyat va ma'rifat”, “Ekspozitsiya va ko'rgazmalarni ilmiy loyihalash va badiiy bezash”, “Ekskursiyalar” kabi bo'limlarining asosiy vazifalari va Muzeyining jamiyatdagi o'rni haqida ma'ruza qilindi. O'tkazilayotgan ushbu amaliyot orqali universitet talabalarini uchun tarmoqqa oid yangiliklarni, sohani rivojlantirish istiqbollarini tushuntirib berish hamda ta'lim mazmunini takomillashtirish, ta'lim-fan integratsiyasi, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish ko'zda tutilgan. Talabalar Muzey fondi va kutubxonalaridan erkin foydalanishlari uchun ziar sharoitlar yaratildi.